



**ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
QO'LLASH ZARURIYATI**

Eshqobilov Jahongir Jurayevich

*O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi
tinglovchisi*

Annotatsiya. Mazkur tezisda zamonaviy menejmentda raqamli texnologiyalarni joriy etishning zaruriyati, ushbu texnologiyalarning tashkiliy rivojlanishdagi tutgan o'rni, strategik boshqaruvga ta'siri, innovatsion g'oyalarni integratsiyalashdagi vositachilik roli hamda menejrlarning raqamli savodxonligini oshirishdagi dolzarb masalalar tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar doirasida menejmentga oid konkret yechimlar, qiyinchiliklar va istiqbollar yoritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy menejment, raqamli transformatsiya, raqamli savodxonlik, menejer kompetensiyasi, strategik boshqaruv, raqamli madaniyat.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida raqamli texnologiyalar tobora hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy menejmentda bu texnologiyalardan foydalanish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki butun boshqaruv falsafasini yangilaydi. Raqamli transformatsiyaning global tus olgan jarayonlari, tez o'zgarayotgan biznes muhiti, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash talablari menejrlardan butunlay yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli zamonaviy menejmentni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish tobora imkonsiz bo'lib bormoqda [1].

ASOSIY QISM

Avvalo, zamonaviy menejmentda raqamli texnologiyalarni qo'llash zaruriyati tashkilotlar o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga tezroq, aniqroq va barqarorroq erishish ehtiyoji bilan bog'liq. Bozor kon'yunkturasining keskin o'zgarishi, mijozlar ehtiyojlarining diversifikatsiyalashuvi, global raqobat va innovatsiyalar oqimining ortib borishi boshqaruv tizimidan moslashuvchanlikni talab qilmoqda. Ana shunday sharoitda raqamli texnologiyalar menejment uchun vosita emas, balki strategik aktiv sifatida namoyon bo'lmoqda.

Menejrlar uchun bugungi kunda asosiy talab – bu raqamli tafakkurga ega bo'lish, texnologik yechimlarni tahlil qila olish, ularni strategik qarorlar bilan uyg'unlashtira olish qobiliyatidir. Misol uchun, mijozlar ma'lumotlarini avtomatik tahlil qiluvchi CRM tizimlari orqali kompaniyalar xaridorlar xulq-atvorini prognozlab, shunga mos xizmat va mahsulotlarni taklif qilishmoqda. Bu esa menejrlar uchun oddiy kuzatishdan ko'ra – raqamli vositalar yordamida chuqur analitik tafakkur yuritish zaruratini tug'diradi [2].





Zamonaviy menejmentda raqamli texnologiyalarning yana bir muhim zarurati — bu jarayonlararo uyg'unlik va tizimlashtirishga erishishdir. Masalan, ishlab chiqarish, marketing, logistika va kadrlar bo'limi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari orqali markazlashgan tarzda boshqarish imkoniyati mavjud. Bu esa tashkilot ichidagi ma'lumotlar oqimini tezlashtiradi, har bir bo'limning samaradorligini mustahkamlaydi hamda menejmentning monitoring, nazorat va baholash funksiyalarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Yana bir jihat, bu — menejerlar uchun masofaviy boshqaruvning zaruratga aylanishidir. Pandemiya davrida turli tashkilotlar masofaviy formatda faoliyat yuritishga majbur bo'ldi. Bunday sharoitda Zoom, Microsoft Teams, Asana, Trello kabi platformalar rahbarlar faoliyati uchun asosiy vositaga aylandi. Endilikda masofaviy nazorat, mas'uliyat taqsimoti, topshiriqlar monitoringi va virtual jamoaviy ishlash menejmentning ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayon esa menejerlardan texnik bilimlar bilan birga raqamli liderlik fazilatlarini ham talab etmoqda [3].

Zamonaviy menejmentda raqamli texnologiyalarni qo'llashning yana bir zaruriyati — bu innovatsion g'oyalarni tez integratsiyalash va joriy etish imkoniyatidir. Startaplar, texnoparklar, raqamli inkubatorlar va venture capital tizimlari aynan raqamli texnologiyalar orqali yangiliklarni tezlik bilan amaliyotga tatbiq qilmoqda. Bu esa menejerlarga nafaqat mavjud resurslardan foydalanish, balki innovatsion muhitni shakllantirish, g'oyalarni mahsulotga aylantirish mexanizmlarini boshqarishni o'rgatmoqda. Har qanday tashkilot uchun innovatsiya — raqobatbardoshlikning garovi bo'lib, u faqat raqamli yechimlar orqali hayotga tatbiq etilishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi raqamli texnologiyalarni soliq ma'murchiligida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bu nafaqat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to'loqlarni to'lash va ma'lumotlarni saqlash usullarigacha ham yangilikliklar kiritaypti.

O'zbekiston tajribasiga murojaat qilsak, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida menejment darajasida ham texnologik yangilanishlar boshlangan. Davlat boshqaruvi tizimida “open data”, “onlayn budjet”, “my.gov.uz” kabi tizimlar yordamida fuqarolar bilan muloqot, hisobotlik, ochiqlik va javobgarlik tamoyillari kuchaytirilmoqda. Xususiyl sektorda esa elektron tijorat, bulutli xizmatlar, raqamli marketing va moliyaviy texnologiyalar menejmentning yangicha formatini shakllantirmoqda. Bularning barchasi — raqamli texnologiyalarni qo'llash zaruriyatini amalda tasdiqlovchi misollardir [4].

XULOSA VA MUNOZARA

Zamonaviy menejmentda raqamli texnologiyalarni qo'llash zamon talabi bo'libgina qolmay, u menejmentni samarali, tezkor, shaffof va innovatsion qilishning yagona yo'li hisoblanadi. Menejerlarning raqamli tafakkurini shakllantirish, texnologik yechimlarni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



strategik rejalashtirishga integratsiya qilish, jamoalarni raqamli vositalar orqali boshqarish bo'yicha salohiyatini oshirish bugungi kundagi asosiy zaruratdir. Bu yo'lda O'zbekiston ham sezilarli taraqqiyotga erishmoqda, biroq bu boradagi islohotlar yanada chuqurlashib borishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirov, M. Innovatsion menejment va raqamli transformatsiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
2. Drucker, P. The Practice of Management. – New York: HarperBusiness, 2006.
3. Brynjolfsson, E., McAfee, A. The Second Machine Age. – New York: Norton, 2014.
4. UNDP Uzbekistan. Digitalization of Public Administration in Uzbekistan. – Tashkent: UNDP, 2023.

